

PRAGMATICS AND LINGVOPRAGMATIC FEATURES OF SPEECH

Azimova Sayyora Xusanboyevna
FarDU base doctoral student

Annotation:

The article describes the terms in the field of linguistics, their essence, the features of speech, language units in speech, the history of their emergence.

Keywords:

Pragmatics, speech, linguistics, linguoprismatic, language, functional, action, philosophical

PRAGMATIKA VA NUTQNING LINGVOPRAGMATIK HUSUSIYATLARI

Azimova Sayyora Xusanboyevna
FarDU tayanch doktoranti

Annotatsiya :

Maqolada tilshunoslik soxasiga oid terminlar ularning mazmun mohiyati , nutqdagi hususiyatlari , nutqdagi til birliklari , paydo bo'lish tarixi bayon etib o'tilgan.

Kalit So'zlar:

Pragmatika , nutq , lingvistika , lingvopragmatik, til , funksional , harakat , falsafiy .

Barchaga birdek malumki , bu dunyoda turli millat va elat vakillari istiqomat qiladi , ularning tili , fini , hayot tarzi , urf odatlari hususan barcha barchasi bir biridan keskin farq qiladi .Tilshunoslik soxasi vakillari har bir millat va elatlarning o'ziga hos bo'lgan tili , so'zlashuv uslublarini tadbiq etib kelishmoqda .Har bir soxaning ham o'ziga hos kichik bo'limlari mavjud bo'lganidek tilshunoslikning ham tarmoqlari , soxalari bor quyida biz tilshunoslikning pragmatika soxasiga biroz to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

"Pragmatika" – yunonchada "ish", "harakat" degan ma'nolarni anglatib, nutqdagi til birliklarining funksionalligini o'rjanuvchi semiotika va tilshunoslikning sohasidir. U Sokratdan oldingi davrlarda ham qo'llanishda bo'lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu tariqa pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30- yillarda pragmatizm g'oyalarining keng targ'ibi aniq sezila boshladi.1 Amerika va Yevropada pragmatikaning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo'lgan falsafiy pragmatizm yo'nalishining asoschilaridan biri Charlz Pirs edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g'oyasi semiotik belgining ma'no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog'liq holda o'rjanishdir. Bu tamoyil muallifi Ch. Pirs birinchilardan bo'lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat subyekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi.

Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amali tarmog'i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon bo'luchchi nutq ishtiroychilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rjanadi. "Pragmatikatilshunoslik fanining yangi sohalaridan biri bo'lib, uning manbasi Ch.Pirs,U.Djems, D.Dpyun, CH.Morris kabi taniqli filosof olimlarning nomi bilan bog'liqidir. Ularning ishlarida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida belgilar sistemasi va lingvistik belgi funktsionalligi xususidagi g'oyalar o'rta ga tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaksis, semantika va

pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi"⁸. Pragmatika grekcha pragmos so'zidan olingan bo'lib, "ish", "harakat" maonolarini ifoda etadi. Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo'llanishini o'rganadi. Shuning uchun ham tilshunoslikning bu yo'nalishi semiotika tarmoqlaridan biri sanaladi.

Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida Ch.I.Morris tomonidan ilmiy hayotga olib kirilgan. U semiotikani semantika, sintaktika, pragmatika kabi tarkibiy qismlarga ajratadi. Tilshunoslikda pragmatikaning yangi tadqiqot oboekti sifatida yuzaga kelishi va ajratilishi, yuqorida taokidlanganidek, Ch.S.Pirs g'oyalari, shuningdek, Dj.R.Ostin, Dj.R.Serl va Z.Vendlerlarning 60-70-yillardagi mantiqiy falsafiy qarashlari asosida yuzaga kelgan nutqiy akt, Pola Graysning maononing pragmatik tahlili va L.Linskiy, Dj.R.Serl, P.F.Strosonlarning referentsiya nazariyalari taosiri bilan uзвиy bog'liqdir.

Dj.R.Ostin, Dj.R.Serl va Z.Vendlerlarning nutqiy akt nazariyasini ta'limoti ta'sirida lingvistik pragmatikaning shakllanishining ma'lum asoslari bor. Chunki nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko'ra so'zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi. Kommunikativ niyat esa nutqiy aktlarning ko'rinishlari sifatida nutqda shakllanishi uning oldiga qator masalalarni qo'yadi. Bizningcha, pragmatikani tilshunoslikning boshqa sohalaridan ajratish va uning tadqiqiy manbasini chegaralash natijasidagina lingvistik pragmatikani yangi tarmoq sifatida talqin etish mumkin bo'ladi. Lingvistik pragmatikaning eng muhim jihatlaridan biri uning boshlang'ich chegarasini aniqlashdir. Shu manoda tilshunos olim

V.V.Petrovning til haqidagi quyidagi tezisini esga olish lingvopragmatikaning boshlang'ich tadqiqiy chegarasini aniqlash uchun lingvistik mezon bo'ladi: "Inson qaysidir tilga xos semantik bilimlarsiz so'zlashi yoki anglashi mumkin emas, ammo o'sha tilga xos semantik bilimlar egasi bo'lishning o'zi ushbu tilda so'zlash va anglash uchun kifoya qiladi degani emas, xuddi musiqali pyesa mazmuniy bilimlari uning ijrosi uchun yetarli bo'limganidek va buning uchun eng asosiysi o'yin mahorati, layoqatiga ham ega bo'lish lozim" bo'ladi. Bizning qarashimiz bo'yicha, so'zlash va anglash jarayoni ham xuddi shunday. Shuning uchun ham to'g'ri va aniq so'zlash uchun hammaga tushunarli bo'lgan semantik bilimlarning o'zinigina bilish yetarli emas, so'zlash va to'g'ri ifodalash uchun individual strategiya mahoratiga ega bo'lish lozim. Nutqiy faoliyat - til ham xuddi shundaydir. Inson semantik bilimlarga ega bo'lishi mumkin, bunga ijtimoiy muhitning o'zi har qanday shaxs uchun maolum imkoniyatlarni yaratadi. Biroq semantik bilimlarga ega bo'lishning o'zi insonni so'zlash, fikrlash va ifoda mazmunini anglashi uchun kamlik qiladi. Inson tildagi barcha semantik bilimlarni bilishni taqazo etadi .

Pragmatik ma'no o'ziga oid bo'lgan leksemani. qo'llovchi xalq ruhiyatini aks ettirib turadi. Shunday ekan, u leksik ma'noning milliyligini ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib qoladi. O'zbek tilida nutqiy protsessda metafora hosil bo'lar ekan, bu hodisa hosila sememada pragmatik sema hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Pragmatika tilning nutqiy vaziyatlar bilan bog'liq xususiyati bo'lib, nutq sub'ekti, nutq ob'ekti tushunchalari muhim o'rinni egallaydi. Nutq ob'ektining ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini so'zlovchi munosabati bilan uyg'unlikda ta'sirli ifodalashda, so'zlashuv nutqida emotSIONAL.ekspressivlikni oshirishda frazeologizmlarning alohida o'rni bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shahriyor Safarov. Pragmalingistik. Toshkent, 2008.
2. Marufjon Yo'ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, 2008.
3. Mamajonov A. Abdupattoev M. Matn sintaksisi. Farg'ona, 2002.
4. Hakimov M. K. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. Farg'ona, 2004.
5. Qo'ng'urov R. Begmatov E. Tojiyev Y. Nutq madaniyati uslubiyat asoslari. Toshkent, 1992.
6. Azimova Sayyora "Nutq aktlari va kommunikativ kompotensiya: "Rad javobini bildiruvchi "illokatsion harakatni pragmatik taxlil qilish " nomli maqola So'z san'ati xalqaro jurnali 6 - son 3- jild Toshkent 2020 .

-
7. Azimova Sayyora " Linguopragmatic features of speech acts : "expression of refusals " in English and Russian language " nomli maqola ACADEMICIA jurnali 10 - son 11- jild .